

MUSTAQILLIK YILLARIDA O‘ZBEKISTONDA XOTIN-QIZLARGA OID DAVLAT SIYOSATI: TA‘LIM VA BANDLIK YO‘NALISHI (1991-2004)

Ruzmetova Munira Kurbonboyevna

Toshkent shahar Oriental Universitetining 2-bosqich magistranti

munirakurbanbayevna@gmail.com

ANNOTATSIYA

Mazkur maqolada 1991–2004 yillarda O‘zbekiston Respublikasida xotin-qizlarning ta‘lim olish huquqini kengaytirish hamda ularning bandligini ta‘minlashga qaratilgan davlat siyosatining shakllanishi va rivojlanish bosqichlari tarixiy-huquqiy tahlil asosida o‘rganiladi. Tadqiqot jarayonida 1992-yilda qabul qilingan O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, 1997-yildagi “Ta‘lim to‘g‘risida”gi Qonun hamda “Kadrlar tayyorlash milliy dasturi” kabi normativ-huquqiy hujjatlar mazmuni va ularning amaliy ahamiyati tahlil qilinadi.

Maqolada xotin-qizlar uchun yaratilgan ta‘lim va kasb-hunar imkoniyatlari, ularni mehnat bozoriga jalb etish mexanizmlari hamda mazkur siyosatning ijtimoiy-iqtisodiy natijalari ochib beriladi. Tadqiqot natijalari ushbu davrda amalga oshirilgan siyosat xotin-qizlarning ijtimoiy mavqeini mustahkamlash va gender tengligi tamoyillarini qaror toptirishda muhim bosqich bo‘lganini ko‘rsatadi.

***Kalit so‘zlar:** xotin-qizlar, davlat siyosati, ta‘lim islohoti, bandlik, gender tengligi, inson kapitali.*

STATE POLICY CONCERNING WOMEN IN UZBEKISTAN DURING THE PERIOD OF INDEPENDENCE: EDUCATION AND EMPLOYMENT (1991–2004)

ABSTRACT

This article examines the formation and development stages of state policy in the Republic of Uzbekistan aimed at expanding women’s access to education and ensuring their employment during the period 1991–2004, based on a historical and legal analysis. The study analyzes the content and practical significance of key regulatory and legal documents, including the 1992 Constitution of the Republic of Uzbekistan, the 1997 Law “On Education,” and the “National Program for Personnel Training.”

The article explores the educational and vocational opportunities created for women, the mechanisms for integrating them into the labor market, and the socio-economic outcomes of the implemented policies. The findings indicate that the

policies pursued during this period constituted an important stage in strengthening women's social status and in establishing the principles of gender equality.

Keywords: *women, state policy, educational reform, employment, gender equality, human capital.*

ГОСУДАРСТВЕННАЯ ПОЛИТИКА В ОТНОШЕНИИ ЖЕНЩИН В УЗБЕКИСТАНЕ В ГОДЫ НЕЗАВИСИМОСТИ: НАПРАВЛЕНИЯ ОБРАЗОВАНИЯ И ЗАНЯТОСТИ (1991–2004 ГГ.)

АННОТАЦИЯ

В данной статье на основе историко-правового анализа рассматриваются этапы формирования и развития государственной политики Республики Узбекистан, направленной на расширение прав женщин на получение образования и обеспечение их занятости в 1991–2004 гг. В ходе исследования анализируются содержание и практическое значение ключевых нормативно-правовых актов, включая Конституцию Республики Узбекистан 1992 года, Закон «Об образовании» 1997 года и «Национальную программу по подготовке кадров».

В статье раскрываются образовательные и профессиональные возможности, созданные для женщин, механизмы их интеграции в рынок труда, а также социально-экономические результаты реализуемой политики. Результаты исследования свидетельствуют о том, что проводимая в указанный период политика стала важным этапом укрепления социального статуса женщин и становления принципов гендерного равенства.

Ключевые слова: *женщины, государственная политика, реформа образования, занятость, гендерное равенство, человеческий капитал.*

KIRISH

*Ayol baxtli bo'lsa, oila va jamiyat ham
albatta baxtli bo'ladi. Bir haqiqat ayonki,
har qanday xalqning ma'naviy darajasini, avvalo,
shu yurt ayollarining ma'naviy saviyasi belgilaydi.*

Shavkat Mirziyoyev

Bugungi globalashuv jarayonida yoshlarni har qanday sharoitga nisbatan faol fuqarolik pozitsiyasini shakllantirish borasida xotin-qizlarning o'rni va roli har qachongidan ham muhimdir. Globalashuv sharoitida axborot oqimining kuchayishi, ijtimoiy-siyosiy jarayonlarning murakkablashuvi yoshlarning ongli va mas'uliyatli bo'lib voyaga yetishini taqozo etadi. Shu nuqtai nazardan, oilada va jamiyatda

ayollarning ma'naviy-ma'rifiy ta'siri, tarbiyaviy salohiyati alohida ahamiyat kasb etadi. Shu bois yurtimizda amalga oshirilayotgan islohotlarning asosiy mazmuni xotin-qizlarning yangi g'oya va ilmiy izlanishlari hamda kasbiy faoliyatlarini qo'llab-quvvatlash, jamiyatdagi ijtimoiy-siyosiy jarayonlarda ularning faol ishtirokini ta'minlashdan iboratdir.

Yurtboshimiz boshchiligida Yangi O'zbekistonda Uchinchi Renessans poydevorini qurish sari dadil qadamlar qo'yilmoqda. Bu jarayonda ayollarning ham salmoqli o'rni borligi shubhasizdir. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev Xalqaro xotin-qizlar kuniga bag'ishlangan tantanali marosimdagi nutqida: «Oilada bir nafar qiz o'qib, oliy ma'lumotga, zamonaviy kasb-hunarga ega bo'lsa, xonadondagi muhit butunlay o'zgaradi», — deya ta'kidlagan edi [Sh.Mirziyoyev]. Ushbu fikr ayollarning ta'lim olishi nafaqat shaxsiy muvaffaqiyat, balki butun jamiyat taraqqiyotiga xizmat qilishini ko'rsatadi. Darhaqiqat, oilada farzand tarbiyasi, yoshlarni komil inson qilib voyaga yetkazishda beqiyos o'ringa ega bo'lgan xotin-qizlarning jamiyatdagi nufuzini oshirish, ularni qo'llab-quvvatlash va muammolarini hal etish davlat siyosatida ustuvor yo'nalishga aylangan.

Xususan, 2024 yil 7 martdagi "Xotin-qizlarning tadbirkorligini yo'lga qo'yish va rivojlantirishni qo'llab-quvvatlashga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi qaror ayollarning iqtisodiy faolligini oshirishga xizmat qilmoqda [O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi]. Mazkur hujjat asosida imtiyozli kreditlar ajratish, kasb-hunar o'rgatish kurslarini tashkil etish, ayollar biznes loyihalarini moliyaviy qo'llab-quvvatlash mexanizmlari kengaytirildi. Bu esa xotin-qizlarning o'z tadbirkorlik tashabbuslarini ro'yobga chiqarishida muhim omil bo'lmoqda.

Xotin-qizlarning huquq va manfaatlarini himoya qilish, ularning ta'lim va bandlik sohasidagi imkoniyatlarini kengaytirish davlat siyosatining ajralmas qismiga aylandi. Ayollarning ta'lim olishi va iqtisodiy faoliyatda ishtirok etishi nafaqat ijtimoiy adolat mezoni, balki iqtisodiy taraqqiyotning muhim omili hisoblanadi. Jahon tajribasi shuni ko'rsatadiki, ayollarning mehnat bozorida ulushi ortgan sari yalpi ichki mahsulot hajmi ham oshib boradi. Inson kapitalini rivojlantirish jarayonida ayollarning bilim va kasbiy salohiyati muhim resurs sifatida namoyon bo'ladi. Shu bois gender tengligini ta'minlash barqaror rivojlanishning ajralmas shartidir.

1992-yilda qabul qilingan O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 46-moddasida xotin-qizlar va erkaklarning teng huquqliligi belgilab qo'yildi [O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi]. Ushbu norma ayollarning ta'lim olish va kasb tanlash huquqlarini konstitutsiyaviy darajada mustahkamlab, keyingi islohotlar uchun mustahkam huquqiy asos bo'lib xizmat qildi. Shuningdek, 1997-yilda qabul

qilingan “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonun hamda “Kadrlar tayyorlash milliy dasturi” uzluksiz ta’lim tizimini joriy etish orqali ta’lim sifatini tubdan yangilashni maqsad qildi [O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi]. Akademik litsey va kasb-hunar kollejarining tashkil etilishi qizlarning o‘rta maxsus ta’lim bilan qamrovini kengaytirdi hamda ularning mehnat bozoriga tayyorgarligini oshirdi. Qishloq hududlarda ta’lim infratuzilmasining kengaytirilishi esa qiz bolalarning ta’lim olish imkoniyatlarini sezilarli darajada yaxshiladi va gender tafovutini kamaytirishga xizmat qildi.

Bozor iqtisodiyotiga o‘tish davrida ayollar bandligini ta’minlash ijtimoiy barqarorlikni saqlashning muhim sharti sifatida ko‘rildi. Xotin-qizlarni qo‘llab-quvvatlashga qaratilgan institutsional mexanizmlar, jumladan, ayollar manfaatlarini ifodalovchi tashkilotlar faoliyatining yo‘lga qo‘yilishi va davlat dasturlarining qabul qilinishi bandlik siyosatini kuchaytirdi. Ayollarga mehnat qonunchiligi doirasida qo‘shimcha kafolatlar berilishi, onalikni himoya qilish choralari, qisqartirilgan ish vaqti va boshqa imtiyozlar ularning iqtisodiy faolligini rag‘batlantirdi. Qishloq hududlarda kichik biznes, oilaviy tadbirkorlik va hunarmandchilikni rivojlantirish orqali xotin-qizlarning o‘zini o‘zi band qilish imkoniyatlari kengaydi. Natijada ayollarning daromad manbalari diversifikatsiya qilinib, ularning iqtisodiy mustaqilligi mustahkamlandi.

1991–2004 yillarda amalga oshirilgan siyosat natijasida xotin-qizlarning ta’lim darajasi va mehnat bozoridagi ishtiroki sezilarli ravishda oshdi [Короленко, Ц.П.]. Ta’lim olgan ayollar sog‘liqni saqlash, ta’lim, xizmat ko‘rsatish va davlat boshqaruvi kabi sohalarda faoliyat yuritib, jamiyat taraqqiyotiga munosib hissa qo‘sha boshladilar. Ayollarning iqtisodiy mustaqilligi mustahkamlanishi ularning jamiyatdagi ijtimoiy rolini kuchaytirdi va gender tengligi tamoyillarining hayotga izchil tatbiq etilishiga zamin yaratdi. Shu bilan birga, ayrim hududlarda bandlik darajasining pastligi, mehnat bozoridagi tarkibiy nomutanosibliklar kabi muammolar saqlanib qolganini ham qayd etish lozim. Bu esa siyosatni yanada takomillashtirish, yangi yondashuvlar va innovatsion mexanizmlarni joriy etish zaruratini ko‘rsatadi.

So‘nggi yillarda xotin-qizlarning ijtimoiy-iqtisodiy faolligini oshirish, ularning tadbirkorlik tashabbuslarini qo‘llab-quvvatlash hamda bandligini ta’minlash davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biri sifatida izchil davom ettirilmoqda. Mehnat qonunchiligida homiladorlik va tug‘ish ta’tili, bolani parvarishlash ta’tili, qisqartirilgan ish vaqti hamda mehnat sharoitlarida qo‘shimcha ijtimoiy himoya choralari nazarda tutilgan bo‘lib, bu ayollarning kasbiy faoliyatini onalik vazifalari bilan uyg‘unlashtirish imkonini beradi.

Ta'lim sohasida ijtimoiy himoyaga muhtoj oilalardan chiqqan qizlar uchun oliy ta'lim muassasalarida alohida kvotalar ajratilishi, magistratura bosqichida xotin-qizlar uchun qo'shimcha grant o'rinlarining joriy etilishi hamda bepul kasb-hunar kurslarining kengaytirilishi ayollarning bilim va kasbiy salohiyatini oshirishga xizmat qilmoqda. Bu esa ularning mehnat bozorida raqobatbardoshligini kuchaytiradi va iqtisodiy barqarorlikni ta'minlaydi.

XULOSA

1991–2004 yillar O'zbekiston tarixida nafaqat siyosiy mustaqillikni mustahkamlash, balki jamiyatning ijtimoiy tuzilmasini tubdan yangilash davri sifatida ham muhim ahamiyat kasb etdi [Короленко, Ц.П.]. Aynan shu bosqichda xotin-qizlarga oid davlat siyosati izchil shakllanib, gender tengligi tamoyillari huquqiy va institutsional jihatdan mustahkamlandi. Konstitutsiyada erkaklar va ayollarning teng huquqliligi belgilanishi, ta'lim va mehnat qilish huquqlarining kafolatlanishi xotin-qizlarning jamiyat hayotidagi ishtirokini kengaytirish uchun asos bo'lib xizmat qildi.

Ta'lim sohasida amalga oshirilgan islohotlar, xususan, uzluksiz ta'lim tizimining joriy etilishi, o'rta maxsus va kasb-hunar ta'limining rivojlantirilishi, oliy ta'lim imkoniyatlarining kengaytirilishi xotin-qizlarning bilim va kasbiy salohiyatini sezilarli darajada oshirdi. Bu jarayon inson kapitalini rivojlantirish strategiyasining muhim tarkibiy qismi bo'lib, ayollarning nafaqat ijtimoiy faolligini, balki iqtisodiy mustaqilligini ham kuchaytirdi. Ta'lim darajasining ortishi ayollarning qaror qabul qilish jarayonlaridagi ishtirokini kengaytirib, ularning jamiyatdagi mavqeini mustahkamladi.

Bandlik siyosati doirasida mehnat qonunchiligida belgilangan ijtimoiy kafolatlar, onalikni muhofaza qilish choralari, qisqartirilgan ish vaqti va boshqa imtiyozlar ayollarning mehnat bozorida barqaror ishtirokini ta'minlashga xizmat qildi. Kichik biznes va oilaviy tadbirkorlikni rivojlantirish orqali xotin-qizlarning o'zini o'zi band qilish imkoniyatlari kengaydi, bu esa ularning daromad manbalarini diversifikatsiya qilish va iqtisodiy barqarorligini ta'minlashga zamin yaratdi. Natijada ayollar ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlarning faol subyektiga aylandi.

Shu bilan birga, o'tish davriga xos ayrim muammolar — hududlar kesimida bandlik darajasidagi tafovutlar, mehnat bozorida tarkibiy nomutanosibliklar, an'anaviy ijtimoiy stereotiplarning saqlanib qolishi — mavjud bo'lib qoldi. Bu omillar davlat siyosatini doimiy ravishda takomillashtirish, yangi mexanizmlar va innovatsion yondashuvlarni joriy etish zaruratini ko'rsatdi. Biroq umumiy tahlil shuni ko'rsatadiki, mazkur davrda amalga oshirilgan chora-tadbirlar xotin-qizlarning huquqiy himoyasi va ijtimoiy faolligini oshirishda muhim natijalar berdi.

Umuman olganda, 1991–2004 yillarda O‘zbekistonda xotin-qizlarga oid davlat siyosati bosqichma-bosqich, tizimli va strategik yondashuv asosida olib borildi [Короленко, Ц.П.]. Ushbu davrda yaratilgan huquqiy, ta’limiy va iqtisodiy asoslar keyingi bosqichlarda gender siyosatini yanada rivojlantirish uchun mustahkam poydevor vazifasini o‘tadi. Xotin-qizlarning ta’lim va bandlikdagi faolligi mamlakatning barqaror rivojlanishi, ijtimoiy adolat va demokratik qadriyatlarning qaror topishida muhim omil sifatida namoyon bo‘ldi. Shunday qilib, mustaqillikning dastlabki yillarida shakllangan xotin-qizlar siyosati O‘zbekistonning uzoq muddatli taraqqiyot strategiyasida hal qiluvchi ahamiyat kasb etgan tarixiy bosqich sifatida baholanishi mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Mirziyoyev, Sh. *Shavkat Mirziyoyev Ko‘ksaroyda 8-martga bag‘ishlangan nutq so‘zladi.* – Sputnik O‘zbekiston. <https://oz.sputniknews.uz/20250307/shavkat-mirziyoev-koksaroyda-8-martga-bagishlangan-nutq-sozladi-48284272.html>
2. Mirziyoyev, Sh. *Shavkat Mirziyoyev: Uy-ro‘zg‘or ishlaridan ortib ta’lim olayotgan xotin-qizlar zamonamizning haqiqiy qahramonlari.* – Kun.uz. <https://kun.uz/news/2025/03/07/shavkat-mirziyoyev-uy-rozgor-ishlaridan-ortib-talim-olayotgan-xotin-qizlar-zamonamizning-haqiqiy-qahramonlari>
3. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. *Constitution of the Republic of Uzbekistan (English / rasmiy elektron versiya).* <https://www.constitution.uz/en>
4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Xalqaro xotin-qizlar kuniga bag‘ishlangan nutqi. – President.uz (rsmiy sayti). <https://president.uz/oz/1545>
5. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning tantanali nutqi (matn PDF). – isrs.uz. <https://isrs.uz/oz/page/pdf/ozbekiston-respublikasi-prezidenti-shavkat-mirziyoyevning-xalqaro-xotin-qizlar-kuniga-bagishlangan-tantanali-marosimdagi-nutqi>
6. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi (yangilangan versiya, elektron portal). <https://constitution.gov.uz/en>
7. Gender tafovuti indeksi va ayollar ta’limi haqida tahliliy hisobot. – Oila va Xotin-qizlar ilmiy-tadqiqot instituti (PDF). <https://genderindeks.uz/wp-content/uploads/2024/11/gender-tafovuti-indeksi-2023.pdf>

Qo‘shimcha foydalanilgan adabiyotlar:

1. Денисов, А.А. Психология интернет-зависимости // Развитие личности. – 2014. – №1. – С. 190-202.

2. Короленко, Ц.П. Интернет-зависимость в русскоязычном секторе интернета // Сибирский научный медицинский журнал. – 2004. – №3. – С. 44-55.
3. Madrahimova, Sh.A. Talabalarda namoyon bo'ladigan virtual qaramlikning nazariy asoslari. Helsinki international scientific online conference, 2022. – 334-337 b.